


# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- may holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






*Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik*



*Xususiy korxonona birlik*



### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.






## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



## Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni

(yanvar- aprel oylarida, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar-aprel oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar-aprel oylarida 1 831 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 111 ta, oilaviy korxonalar - 421 ta, xususiy korxonalar - 194 ta, muassasalar - 62 ta va boshqalar – 43 tani tashkil etdi.

# Oilaviy korxonalar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- may holatiga ko'ra 6 158 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 577 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 558 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 451 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 421 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 248 taga yoki 0,6 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


# Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- may holatiga ko'ra, 13 022 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 258 taga yoki 21,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 306 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 963 taga yoki 19,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 111 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.








Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- may holatiga ko'ra, 603 tani tashkil etib, ulardan 578 tasi yoki 95,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 103 taga yoki 21,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- aprel oylarida viloyatimizda 30 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)


	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>5 041</b>	<b>6 492</b>	<b>8 187</b>	<b>10 343</b>	<b>12 306</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	513	663	929	1 487	1 804
Sanoat	789	1 055	1 268	1 589	1 814
Qurilish	826	1 048	1 450	1 654	1 914
Savdo	1 508	2 009	2 555	3 305	4 057
Tashish va saqlash	502	549	608	627	644
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	188	249	330	385	469
Axborot va aloqa	72	86	105	125	152
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	53	77	95	139	172
Boshqa turlar	590	756	847	1 032	1 280



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
<b>Jami</b>	<b>79</b>	<b>248</b>	<b>379</b>	<b>475</b>	<b>578</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	69	94	109	121
Sanoat	35	65	102	126	136
Qurilish	2	12	20	35	38
Savdo	14	63	112	151	215
Tashish va saqlash	4	8	7	7	9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	11	19	20	24
Axborot va aloqa	1	1	2	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	4	6	8
Boshqa turlar	5	16	19	20	25

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	578	148	430
Termiz sh.	333	36	294
tumanlar:			
Oltinsoy	7	6	1
Angor	21	6	15
Bandixon	3	1	2
Boysun	9	6	3
Muzrabot	15	6	9
Denov	19	11	8
Jarqo'rg'on	15	8	7
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	20	11	9
Termiz	47	16	31
Uzun	41	19	22
Sherobod	13	7	6
Sho'rchi	15	7	8



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,8 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Sherobod (6,5 %), Termiz (6,5 %), Sariosiyo (5,3 %), Uzun (5,2 %), Boysun (4,8 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,8 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,1 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (15,6 %), Denov (11,2 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Boysun (7,7 %), Qumqo'rg'on (7,1 %), Sherobod (7,0 %), Angor (5,7 %), Sho'rchi (5,5 %), Muzrabot (5,3 %), Sariosiyo (5,3 %), Bandixon (4,7 %), Termiz (4,4 %), Qiziriq (4,3 %), Oltinsoy (4,2 %) va Uzun (4,1 %) ulushiga ega.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,8 %), Denov (9,6 %), Termiz (8,8 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Sherobod (6,3 %), Qumqo'rg'on (5,6 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,1 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,4 %), Oltinsoy (2,4 %) va Bandixon (2,2 %) ulushiga ega.

## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2022- yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- aprel oylarida, birlikda)




2022- yil yanvar- aprel oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Boysun (16,4 %), Denov (11,6 %), Oltinsoy (9,3 %), Termiz sh. (7,4 %), Qiziriq (6,9 %), Sherobod (6,2 %), Angor (6,2 %), Jarqo'rg'on (5,9 %), Bandixon (5,7 %), Sariosiyo (4,5 %), Muzrabot (4,5 %), Termiz (4,5 %), Uzun (3,8 %), Sho'rchi (3,8 %) va Qumqo'rg'on (3,3 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar- aprel oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**